

FARG'ONA VILOYATI SHAROITIDA YUQORI VA SIFATLI KARTOSHKA YETISHITIRSHNING YANGI USULLARINI TAKOMILASHTIRISH

Gulchehra O'runboyeva

“Qishloq xo'jaligi va o'rmon melioratsiyasi” kafedrası
dotsenti Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiya instituti Elektron pochta
gulchexraurunboyevab@mail.ru, Mobil telefon: +998911768813

X. Abdullaev

“Qishloq xo'jaligi va o'rmon melioratsiyasi”
magistraturasi Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiya institute

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada dehqonchilik ishlarini rivojlantirishda xalqning tajriba va ko'nikmalariga, an'analarga tayanib ish ko'rish, ulardan samarali foydalanish, Farg'ona vodiysi sharoitida kartoshka yetishtirishning yangi usullari haqida ma'lumot beriladi

KALIT SO'ZLAR: “ikkinchi non”, dehqonchilik madaniyati, iqlim mo'tadilligi, ilmiy tadqiqotlar, mahalliy o'g'it

KIRISH

Kartoshka, xalqimiz ta'biri bilan aytganda, ikkinchi non. Chunki u ham non kabi me'daga tegmaydi. U nafaqat to'yimliliigi, balki shifobaxshligi bilan ham o'ziga xosdir. Kartoshka tarkibida oqsil, yog', uglevodlar, organik kislotalar, V1, V2, RR, S, D, K, E, A vitaminlari, natriy, kaliy, magniy, kalsiy, temir, fosfor, yod kabi elementlar mavjud.

Boshqa jihatdan, “ikkinchi non” atamasining o'zi uning ijtimoiy ahamiyatini belgilaydi va oziq-ovqat iste'molida muhim o'rin tutadi. Uning sifatli va arzon bo'lishi har bir oila farovonligiga ta'sir qiladi.

Hozirgi kunda 156 mamlakatda yiliga 377 million tonnaga yaqin kartoshka etishtiriladi. Xitoy, Hindiston, Rossiya, Ukraina, AQSH, Germaniya, Bangladesh, Polsha, Fransiya va Niderlandiya eng yetakchi ishlab chiqaruvchilar hisoblanadi.

O'zbekiston bu ro'yxatda 23-o'rinda turadi. 2020-yilda barcha toifadagi xo'jaliklarda 2,9 million tonna kartoshka etishtirildi, shundan 1,5 million tonnasi fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi korxonalarini hissasiga to'g'ri keldi.

“East fruit” kompaniyasi tahlilicha, yurtimizda kartoshka yetishtirish hajmlari yildan yilga aholi sonidan ham tezroq o'sib boryapti. Natijada 2000-yildan 2020-yilga qadar aholi jon boshiga kartoshka yetishtirishning yillik hajmi 29,5 kilogrammdan 91 kilogrammgacha, ya'ni 3 baravardan ko'proq o'sgan.

<https://conferencea.org>

Bu juda katta muvaffaqiyat. Lekin tahlillar kartoshkaning qaysi navini qaerga ekish aniq hisobga olinmayotgani, ayniqsa, fermer va tomorqa xo'jaliklarida topilgan urug' qadalayotgani, pirovard natijada hosildorlik past darajada bo'lib qolayotganini ko'rsatmoqda. Shu bois, yurtimizga iste'mol uchun yiliga 200-300 ming tonna, urug'lik uchun 17 ming tonna kartoshka chetdan keltiriladi.

Kartoshkachilik sohasini rivojlantirish hamda yangi navlar yaratishda Jahon kartoshkachilik markazi (CIP) bilan hamkorlikda ishlanmoqda va botanik urug'lardan kartoshka etishtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Qishloq xo'jaligi vazirligi va BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) hamkorligidagi umumiy qiymati 195 ming dollar bo'lgan loyiha 2021-2023-yillar davomida amalga oshiriladi. Uning asosiy maqsadi kartoshka ishlab chiqarish sohasi salohiyatini oshirishga qaratilgan bo'lib, bunga navlarni ro'yxatga olish va sertifikatlash tizimini takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlar yo'nalishini modernizatsiyalash, yuqori sifatli kartoshka ishlab chiqarishni rivojlantirish va tayyor mahsulotlarni omborxonalarda saqlash sharoitlarini yaxshilash orqali erishiladi.

ASOSIY QISM

Farg'ona vodiysi o'zining bir qator jihatlari bilan, chunonchi tabiiy-geografik sharoiti, aholisining katta qismi qadimdan o'troq turmush tarzini kechirganligi, qolaversa etnik tarkibining rang-barangligi bilan O'rta Osiyoning boshqa tarixiy-madaniy o'lkalaridan farqlanib turadi. O'tmishda bu o'lka iqlimining mo'tadilligi, suv manbalarining seroblighi, xullas dehqonchilik uchun qulay tabiiy sharoitning mavjudligi bilan O'rta Osiyoda salohiyatli mavqega ega bo'lgan. Shuningdek, vodiy aholisi dehqonchilik madaniyatining rivojlanishida o'ziga xos tarixiy an'alariga ega bo'lib, aynan bugungi kunda ushbu an'analarning tiklanishi nafaqat ilmiy, balki amaliy ahamiyatga ham molikdir. Qolaversa, hozirgi kunda xalqimizning dehqonchilikka oid urf-odat va marosimlarni, ularning tarixiy ildizlarini, ajdodlarimizning qadimiy an'alarini kengroq yoritish, bevosita bugungi kunda dehqonchilik ishlarini rivojlantirishda xalqning tajriba va ko'nikmalariga, an'alariga tayanib ish ko'rish, ulardan samarali foydalanish va ommaga tushuntirish zarurati bilan ham izohlanadi.

Yurtimizda ertangi kartoshka asosan fevral oyining oxiri mart oyining boshlarida ekiladi. Kechki kartoshka esa, may oyining oxirlari iyun oyining boshlarida ekiladi. Kartoshkani ekishdan avval yer ekishga tayyorlanadi. Katta maydonlarga ekilganda yerni haydashdan oldin mahalliy o'g'it (chirigan go'ng) amofost, ammiak selitra, superfosfat kabilarni sepiladi. Yer haydalib tayyorlangandan so'ng, urug'ni ekish mumkin bo'ladi. Bunda yerdagi namlik darajasi yetarli darajada bo'lishi kerak.

Namlik o'ta darajada yuqori ham, o'ta kam ham bo'lmasligi kerak. Katta maydonlarga ekilganda maxsus mashinalarda ekiladi. Kichik maydonlarga, tomorqalarga, yosh bog'lar orasiga ekilganda ekish muddatlariga qarab qatorlab yoki kvadrat uyalab ekiladi. Qatorlab

ekilganda qator orasini 60-70 sm dan qilib ekiladi. Qator o‘rnini rejalab (chizib) olingandan keyin, ketmon yoki belkurak bilan 8-10 sm chuqurlikda o‘yib, uyalar o‘rnini ochibchiqiladi. Agar yer o‘g‘itlanmagan bo‘lsa, har bir uyaga 400-500 gram chirigan go‘ng, superfosfat va amiak selitra kabi o‘g‘itlardan tuproqqa aralashtirib solinadi. Bunda bir uyaga bir dona urug‘ ekiladi. Kvadrat uyalab ekilganda esa, bir uyaga ikki donadan urug‘ ekish mumkin. Yerdagi namlik va ob-havo normal holatda bo‘lganda ekilgan kartoshka 2-3 hafta oralig‘ida chiqadi. Urug‘lar hali chiqib ulgurmasidan yomg‘ir natijasida yer qatqaloq bo‘lib qolganda yerni haskash bilan yumshatish kerak bo‘ladi. Bu orqali ekilgan urug‘ tuproq ostida siqilib qolmaydi.

Yumshoq tuproq orasida o‘simtalar nafas olishi uchun havo yaxshi kirib turadi. Bundan tashqari yumshatilgan tuproq namlikni o‘zida yaxshi saqlaydi. Agar qatqaloqqa e‘tibor berilmasa urug‘likka havo o‘tmasdan chirib qolishi mumkin. Kartoshkadan mo‘l hosil olish uchun chopiq, qilish alohida ahamiyatga ega. Chopiq, qilish natijasida namlik yaxshi saqlanadi, ochilib qolgan mevalar tuproq, bilan ko‘milib boriladi, yovvoyi o‘tlardan tozalanadi.

Hosil olingunga qadar kartoshkani 3 bor chopiq qilinadi. Birinchi marta poyalar 15 20 sm bo‘lganda, ikkinchi marta g‘unchalaganda, uchinchi marttasida esa gullaganda chopiladi. Chopish paytida o‘simlik tagiga va tuplar orasigatuproq tortish kerak bo‘ladi. Ertangi kartoshka aprelning oxiri, mayning boshlaridan boshlab, har 10-15 kunda sug‘orib turiladi.

May oyining oxirlaridan boshlab g‘unchalab, meva tuga boshlaydi. Bu paytga kelib havo ancha isib ketadi va bu kartoshkaga salbiy ta‘sir qilishi mumkin. Shu sababli meva tugish boshlangandan hosil yig‘ilgunga qadar har 67 kunda sug‘orib turiladi. Agar yetarli darajada sug‘orilmasa poyasi bo‘yiga o‘sib, ingichka va nimjon bo‘lib qoladi. Sekin meva tugadi yoki umuman tugmay qo‘yadi. Tugulgan mevalar o‘smay, rivojlanmay qoladi. Kechki kartoshkani sug‘orish esa boshqacharoq tartibda bo‘ladi. Ekishdan oldin ham yerni sug‘orib olinadi, sababi ekish payti yozning eng issiq kunlariga to‘g‘ri keladi. Kartoshka ekilganidan so‘ng ham maysalar chiqquniga qadar 1-2 martta sug‘oriladi. Maysalar chiqqanidan keyin sentabrning o‘rtalariga qadar har 8-10 kunda sug‘orib turiladi. Havo salqinlanishi bilan sug‘orish kamaytiriladi va hosilni yig‘ishga yaqin qolganda 15-20 kun oldin sug‘orish batamom to‘xtatiladi.

XULOSA

Kartoshkachilik sohasi salohiyatini oshirish, yanada yuqori, barqaror hamda sifatli mahsulot yetishtirish oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga ham xizmat qiladi. Sifatli urug‘ – bo‘liq hosil, deganlaridek, kartoshkachilikning innovatsion usullar va zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlantirilishi dasturxonimizda “ikkinchi non”ning to‘kin bo‘lishiga mustahkam zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR

1. Ziyodullo Isoqov. Farg‘ona vodiysida an‘anaviy Dehqonchilik Madaniyati
2. Rajabov, F. Lobar Djuraeva, & Asror Maxmadaliev (2020). UZBEKISTON FERMER XUJALIKLARI: RIVOJLANISHI, IXTISOSLASHUVI, GEOGRAFIYASI. Academic research in educational sciences,(3), 674-686
3. www.agromart.uz
4. Abdurauf QORJOVOV Kartoshkachilik: innovatsion usullar va klasterlar.